JIZZAX VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik



2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **13,5** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **3,1** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **13,8** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-dekabrida **4 356** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga kamaygan demakdir.

## 2021-2025- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda




Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| **16 677** | **Jizzax viloyati** | **13 534** |
| 4 469 | Jizzax sh | 3 782 |
| 576 | Arnasoy | 620 |
| 1 140 | Baxmal | 952 |
| 1 563 | G‘allaorol | 1 271 |
| 2 256 | Sharof Rashidov | 1 936 |
| 661 | Do‘stlik | 428 |
| 1 430 | Zomin | 1 152 |
| 869 | Zarbdor | 656 |
| 614 | Zafarobod | 438 |
| 498 | Mirzacho‘l | 387 |
| 883 | Paxtakor | 606 |
| 1 292 | Forish. | 997 |
| 426 | Yangiobod | 309 |

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **13 534** tani, shundan yangi tashkil etilganlari 4356 tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Jizzax shahrida **3 782** tani yoki jamiga nisbatan 27,9 % ni tashkil etdi.

### 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbati, birlikda

| | |
|---|---|
| Jizzax shahar | 19,3 |
| Arnasoy | **23,2** |
| Baxmal | 12,0 |
| G'allaorol | **12,6** |
| Sharof Rashidov | 11,8 |
| Do'stlik | **11,9** |
| Zomin | 11,8 |
| Zarbdor | **14,4** |
| Mirzacho'l | 15,8 |
| Zafarobod | **15,3** |
| Paxtakor | 11,3 |
| Forish | **13,3** |
| Yangiobod | 15,7 |

### Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda







2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **13,8** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **4,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari soning har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Arnasoy tumanida 23,2 birlik, Jizzax shahrida 19,3 birlik, Yangiobod tumanida 15,7 birlik, Mirzacho‘l tumanida 15,8 birlik, Zafarobod tumanida 15,3 birlik, Zarbdor tumanida 14,4 birlikka yetdi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Arnasoy tumanida 23,6 birlik, Jizzax shahri 21,1 birlik, Yangiobod tumanida 18,6 birlik, Mirzacho‘l tumanida 17,4 birlik, Zarbdor tumanida 16,8 birlik, kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

## 2025- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 927 | Jizzax shahri | 973 |
| 202 | Arnasoy | 310 |
| 349 | Baxmal | 315 |
| 518 | G‘allaorol | 493 |
| 434 | Sharof Rashidov | 466 |
| 157 | Do‘stlik | 161 |
| 437 | Zomin | 429 |
| 258 | Zarbdor | 279 |
| 203 | Zafarobod | 123 |
| 183 | Mirzacho‘l | 147 |
| 268 | Paxtakor | 183 |
| 372 | Forish | 353 |
| 116 | Yangiobod | 124 |

**2024- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da**




2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Jizzax shahri – 22,3%, G‘allaorol – 11,3 %, Sharof Rashidov – 10,7 %, Zomin- 9,8 %, Forish – 8,1 %, Baxmal – 7,2 %, Zarbdor – 6,4 % hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2023-2024- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

| Iqtisodiy faoliyat turi | 2024- y. | 2023- y. |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1239 | 1211 |
| Sanoat | 930 | 799 |
| Qurilish | 156 | 201 |
| Savdo | 1 165 | 1 355 |
| Tashish va saqlash | 58 | 84 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 314 | 311 |
| Axborot va aloqa | 105 | 114 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 45 | 42 |
| Boshqa xizmatlar | 344 | 307 |

2023- y. 2024- y.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1 024 ta , savdo sohasida 924 ta, sanoatda 809 ta hamda yangidan tashkil etilgan.

Tumanlar va shahar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Jizzax shahrida 793 ta, G‘allaorol tumanida 408 ta, Sharof Rashidov 382 ta va Zomin tumanida 355 ta yangidan tashkil etilgan.

2023- y. 2024- y.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik




So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 4 356 ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – 1 165 (yoki 26,7 %) ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1 239 (yoki 28,4 %) ta, sanoat sohasida 930 (yoki 21,3 %) ta, xizmatlar sohasida 477 (yoki 10,9 %) ta, va qurilish sohasida 156 ( yoki 3,6 %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da






# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyekt-larining ulushi 74,5 % ni tashkil qildi




### 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida- 98,2 % ni, yo‘lovchi aylanmasida- 97,2 % ni, yo‘lovchi tashishda- 94,3 % ni, qurilishda- 88,9 %, yuk aylanmasida- 97,0 % ni  tashkil etdi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

*Hajmi, mlrd so'mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

*Hajmi, mlrd so'mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

*Hajmi, mlrd so'mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati

*Hajmi, trln so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

*Hajmi, mlrd so‘mda*




*Ulushi, % da*




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati

*Hajmi, mlrd so‘mda*




*Ulushi, % da*



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**

| | |
|---|---|
| Jizzax shahri | 2 400,3 |
| Arnasoy | 409,7 |
| Baxmal | 147,6 |
| G‘allaorol | 157,4 |
| Sharof Rashidov | 766,8 |
| Do‘stlik | 157,0 |
| Zomin | 390,4 |
| Zarbdor | 136,4 |
| Zafarobod | 78,8 |
| Mirzacho‘l | 130,6 |
| Paxtakor | 433,7 |
| Forish | 712,3 |
| Yangiobod | 80,3 |

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 014,4 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (2 400,3 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (766,8 mlrd. so‘m), Forish (712,3 mlrd. so‘m), Paxtakor (433,7 mlrd.so‘m), Arnasoy (409,7 mlrd.so‘m) va Zomin (390,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Zafarobod tumani (78,8 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**



## 2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi % da

2024- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **27,2** % ni tashkil etdi.




## 2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Arnasoy , Yangiobod, tumanlarida (100,0 %), Sharof Rashidov tumanida (99,9 %), Baxmal (97,2 %), Zarbdor (80,1 %) tashkil etdi.

## 2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi




## 2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

| | | |
|---|---|---|
| Yangiobod | 16,9 | 79,2 |
| Forish | 177,3 | 94,9 |
| Paxtakor | 189,8 | 97,5 |
| Mirzacho‘l | 57,2 | 84,7 |
| Zafarobod | 60,6 | 92,3 |
| Zarbdor | 113,4 | 93,7 |
| Zomin | 311,8 | 61,8 |
| Do‘stlik | 121,2 | 93,4 |
| Sharof Rashidov | 668,5 | 100,0 |
| G‘allaorol | 210,3 | 94,8 |
| Baxmal | 148,0 | 93,5 |
| Arnasoy | 66,5 | 89,4 |
| Jizzax sh. | 1 925,4 | 89,2 |

*hajmi, mlrd. so‘mda*

*ulushi, % da*

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5584,8 milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 88,9 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati yanvar-sentabr oylarida 108,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (1 925,4 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (668,5 mlrd. so‘m), Zomin (311,8 mln.so‘m), G‘allaorol (210,3 mlrd so‘m), Paxtakor (189,8 mlrd. so‘m), Forish (177,3 mlrd. so‘m) hamda Baxmal (148,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

## 2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 11 779,6 milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining 51,1 % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 113,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish tumani (2 430,2 mlrd. so‘m), Jizzax shahri (2 435,6 mlrd so‘m), Zomin (1 737,4 mlrd.so‘m), Sharof Rashidov (1 307,7 mlrd. so‘m), Zafarobod (908,5 mlrd. so‘m), Do‘stlik (678,5 mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi.

### 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




### 2020-2025- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 29 596,2 mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining 98,2% ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 102% ni tashkil qildi.

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal (4 070,4 mlrd. so‘m), G‘allaorol(4 782,0 mlrd.so‘m), Zomin(2 614,4 mlrd.so‘m), Sharof Rashidov (2 949,4 mlrd.so‘m), Do‘stlik (2 161,4 mlrd.so‘m), Paxtakor (2 208,6 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**

| | | |
|---|---|---|
| Yangiobod | 795,9 | 99,3 |
| Forish | 2299,1 | 98,8 |
| Paxtakor | 2208,6 | 97,7 |
| Mirzacho‘l | 1558,8 | 98,3 |
| Zafarobod | 1720,2 | 99,1 |
| Zarbdor | 2217,1 | 99,5 |
| Zomin | 2614,4 | 90,4 |
| Do‘stlik | 2161,4 | 99,7 |
| Sharof Rashidov | 2949,4 | 99,3 |
| G‘allaorol | 4782,0 | 99,5 |
| Baxmal | 4070,4 | 99,4 |
| Arnasoy | 1792,9 | 99,4 |
| Jizzax sh. | 425,9 | 90,6 |

*hajmi, mlrd. so‘mda*

*ulushi, % da*

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

### 2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 11060,4 mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 95,4 % ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 122,1 % ni tashkil qildi.

### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

| | | |
|---|---|---|
| Yangiobod | 126,2 | 98,8 |
| Forish | 502,9 | 98,6 |
| Paxtakor | 588,8 | 99,6 |
| Mirzacho‘l | 353,7 | 96,8 |
| Zafarobod | 204,1 | 99,0 |
| Zarbdor | 436,9 | 99,3 |
| Zomin | 1 159,4 | 86,2 |
| Do‘stlik | 467,2 | 99,4 |
| Sharof Rashidov | 1 425,3 | 99,1 |
| G‘allaorol | 1 040,7 | 97,3 |
| Baxmal | 1 186,6 | 98,7 |
| Arnasoy | 273,9 | 99,1 |
| Jizzax sh. | 2 830,1 | 93,8 |

*hajmi, mlrd. so‘mda*

*ulushi, % da*

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri(2 830,1 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (1425,3 mlrd. so‘m), G‘allaorol (1 040,7 mlrd. so‘m), Zomin (1 159,4 mlrd. so‘m), Baxmal (1 186,6 mlrd. so‘m), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### 2020 va 2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




**2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda**




2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 88,8 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 72,4 % ini va o‘sish sur’ati 113,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (3 146,2 mlrd. so‘m),Sharof Rashidov (136,8 mlrd. so‘m), G‘allaorol (763,2 mlrd. so‘m), Zomin (676,7 mlrd. so‘m), Baxmal (690,2 mlrd so‘m) va Forish (438,5 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlarida 57,2 % (5 458,6 mlrd. so‘m) savdo xizmatlarida – 22,9 % (2 183,4 mlrd. so‘m), transport xizmatlarida –7,5 % (721,8 mlrd. so‘m), Boshqa xizmatlarda – 6,2 % (588,7 mlrd. so‘m)ni hamda ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi shaxsiy xizmatlarda 0,1 %(6,2 mlrd.so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati







## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati






**2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 13 193,9 ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 63,4 % ini tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

| | | |
|---|---|---|
| Yangiobod | 3 314,9 | 100,0 |
| Forish | 4 265,6 | 18,7 |
| Paxtakor | 15 212,0 | 59,7 |
| Mirzacho‘l | 7 307,8 | 88,2 |
| Zafarobod | 2 327,4 | 100,0 |
| Zarbdor | 19 681,7 | 100,0 |
| Zomin | 6 819,9 | 54,6 |
| Do‘stlik | 8 374,5 | 70,9 |
| Sharof Rashidov | 8 033,9 | 100,0 |
| G‘allaorol | 4 070,7 | 49,0 |
| Baxmal | 8 358,7 | 88,5 |
| Arnasoy | 6 987,2 | 100,0 |
| Jizzax sh. | 33 737,7 | 51,3 |

*hajmi, ming. AQSH dollar*

*ulushi, % da*

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Arnasoy, Sharof Rashidov, Zarbdor , Yangiobod – 100,0 %, Baxmal tumanida – 88,5 %, Mirzacho‘l tumanida–88,2 % ni tashkil qildi. Eng past ko‘rsatkich Do‘stlik tumanida – 70,9 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2020-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 424,9 million AQSH dollarini yoki jami importning 23,6 % ini tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor tumanlarida – 100,0 %, Sharof Rashidov – 99,3%, Forish tumanida – 94,7%, Zomin,- 88,1% ni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| Jizzax shahri | 17,6 |
| Arnasoy | 100,0 |
| Baxmal | 88,9 |
| G‘allaorol | 0,2 |
| Sharof Rashidov | 99,3 |
| Do‘stlik | 100,0 |
| Zomin | 88,1 |
| Zarbdor | 100,0 |
| Zafarobod | 21,2 |
| Mirzacho‘l | 64,6 |
| Paxtakor | 18,8 |
| Forish | 94,7 |
| Yangiobod | 100,0 |

# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2024- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 98,6 % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,0 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,0 % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,2 % ni tashkil qildi.




2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,2 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,1 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil IV chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada 634 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 235 (37,1 %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 375 (59,1 %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 24 (3,8%)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,2 % (268 ta), xizmatlar sohasida – 19,1 % (121 ta), sanoatda – 13,1 % (83 ta), qurilishda – 10,6 % (67 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 15,0 % (95 ta)ni tashkil etdi.

## 2024- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



## 2024- yil IV chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

| Birlikda | | Ulushi, foizda |
|---|---|---|
| 209 | Jizzax shahar | 93,3 |
| 26 | Arnasoy | 100,0 |
| 32 | Baxmal | 88,9 |
| 35 | G‘allaorol | 77,8 |
| 89 | Sharof Rashidov | 91,8 |
| 32 | Do‘stlik | 94,1 |
| 44 | Zomin | 84,6 |
| 17 | Zarbdor | 94,4 |
| 26 | Zafarobod | 100,0 |
| 20 | Mirzacho‘l | 100,0 |
| 29 | Paxtakor | 90,6 |
| 61 | Forish | 92,4 |
| 14 | Yangiobod | 93,3 |

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahri (209 ta), Sharof Rashidov (89 ta), Forish (61 ta), Zomin (44 ta), G‘allaorol (35 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida 286 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa 235 taga yetgan yoki 2020- yilning IV choragiga nisbatan 51 taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda 321 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida 375 ta yoki 54 taga oshgan.

O‘z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda 88 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib 24 tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2020- yilga nisbatan 64 taga kamaygan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2020 - yilning IV choragida 212 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV choragiga kelib esa 256 taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan 44 taga ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV choragida 448 ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV choragida 293 ta yoki 155 taga ko‘paygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2020- yilning IV choragida 35 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko‘rsatkich 15 tani tashkil etib, 20 taga kamaygan.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida 24,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa 37,1 % ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan 12,8% birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda 60,9 % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV choragida 59,1 % yoki 1,8 % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda 14,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib, bu ko‘rsatkich 3,8 % ga yetgan yoki 11,0 % ga kamaygan.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV choragida 58,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa 45,4 % ga yetgan yoki 2020- yilning IV choragida nisbatan 12,7 % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilning IV choragida 39,6 % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida 51,9 % yoki 12,3 % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilning IV choragida 2,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning IV choragiga kelib, bu ko‘rsatkich 2,7 % yoki 0,3 % birlikka oshgan.

**2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning IV choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – 48,5 % ni, sanoatda – 11,9 % ni, xizmatlar sohasida – 17,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda – 38,4 % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida sohasida – 17,6 % ni, xizmatlar sohasida – 19,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida savdoda – 25 % ni , qurilish sohasida – 20 % ni, tashkil etdi.

**2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




2024- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda – 44,2 % ni, sanoatda– 17,6  % ni. xizmatlar sohasida – 19,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi savdoda – 40,7 % ni, xizmatlar – 18,7 % ni qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida sohasida – 16,1% ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushlari savdoda,  qurilish va xizmat sohasida – 28,6  % ni  tashkil etdi

## 2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 255 | 251 | 66 |
| Band bo‘lganlar soni | 170 | 355 | 46 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 184 | 366 | 19 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 182 | 370 | 17 |
| Raqobat muhiti | 223 | 334 | 11 |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 307 | 317 | 9 |
| Band bo‘lganlar soni | 192 | 434 | 7 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 223 | 405 | 5 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 211 | 418 | 4 |
| Raqobat muhiti | 265 | 366 | 2 |

** Faqat raqobat muhitiga tegishli*

**2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da**




**2024- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da**




** Faqat raqobat muhitiga tegishli*